



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

THE POSSIBILITIES OF USING THE CREATIVITY OF THINKERS OF THE EASTERN RENAISSANCE IN THE UPBRINGING OF CHILDREN

Utkir N. Murodov

associate professor

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Tashkent, Uzbekistan

Diyora Mamurova

student

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Traditions, education, wisdom, virtue, literature, A.Yugnakiy, A.Navoi, instrument, idea

Received: 29.10.22

Accepted: 31.10.22

Published: 02.11.22

Abstract: The article highlights the methods and priorities of educating the younger generation on the basis of their heritage, provides examples of eastern Allams. The content-essence of pedagogical views of Renaissance thinkers was put forward.

BOLALAR TARBIYASIDA SHARQ UYG'ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARI IJODIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Utkir N. Murodov

dotsent

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tashkent, O'zbekiston

Diyora Ma'murova

talaba

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Tashkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. An'ana, tarbiya, hikmat, fazilat, adabiyot, A.Yugnakiy, A.Navoiy, vosita, g'oya.

Annotatsiya. Maqolada sharq allomalaridan misol keltirgan holda, ular merosidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning usullari va ustuvor jihatlari yoritib berilgan. Uyg'onish davri mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridagi mazmun-mohiyat ilgari surilgan.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ

Уткир Н. Муродов

доцент

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Ташкент, Узбекистан

Мамурова Диёра

студентка

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Традиции, воспитание, мудрость, добродетель, литература, А.Югнакий, А.Навои, инструмент, идея.

Аннотация: В статье освещаются методы и приоритеты воспитания подрастающего поколения на основе их наследия, приводятся примеры восточных Алламе. Выдвигалось содержание-сущность педагогических взглядов мыслителей эпохи Возрождения.

KIRISH

Har bir xalqning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari va shu bilan birga o‘ziga xos milliy tarbiya usullari mavjud. Bu tarbiya vositalari yillar davomida shakllanib, yuksalib borgan. Qaysi bir xalq va qaysi davlat bo‘lmasin jahon miqyosida o‘z milliy qadriyatlar bilan ajralib turadi. Sharq mamlakatlari esa milliylik borasida hamisha alohida ajralib turadigan o‘lkalar hisoblanadi. Bugungi kundagi ularning maqsadlari ham mana shu milliy odatlarni saqlab qolish va yosh avlodni milliy an’analarga sodiqlikda tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi-tarbiyachilarining ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi — ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘sirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak».[1]

ASOSIY QISM

Sharq xalqlarining ma’naviy dunyosining sayqallanib rivoj topib jahonga chiqishida sharq renesansi –Uyg‘onishi deb nomlanuvchi davr mutafakkirlari ijodi muhim o‘rinni egallaydi. Uyg‘onish jarayoni IX asrdan XV-XVI asrlargacha davom etib, bu oraliqda juda ko‘plab buyuk olimlar yetishib chiqib faoliyat olib bordilar. Movaraunnahr va Xurosondagi ma’naviy ko‘tarilish ilm-fan va ma’rifat sohasida bo‘lib, bu davrdagi ma’naviy meros durdonalari ilmiy hamda ta’limiy-axloqiy asarlarga ajratilgan. Buyuk qomusiy olimlar al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy,

Ahmad al-Farg‘oniy, Ibn Sino; ta’limiy-axloqiy risolalar mualliflari Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Dovoniy kabi darg‘alar betakror milliy meros qoldirdilar. Didaktik asarlardagi asosiy masala bu inson muammosi bo‘lgan. Insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaning asosiy o‘zagi sanalgan. Ular asarlardagi pedagogik qarashlarni quyidagicha baholash mumkin:

Birinchidan, ta’limiy-didaktik asarlarda barkamol inson tarbiyasi asosiy mavzu hisoblanadi;

Ikkinchidan, mutafakkirlar ijodida milliy qadriyatlarga sodiqlik tarannum etiladi;

Uchinchidan, insonparvarlik g‘oyalari – ya’ni o‘zaro hurmat, adolat, mehr-muhabbat, oilaning muqaddasligi kabi fazilatlar oliv qadriyatlar sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kun yoshlari vatanimizda yashab ijod etgan buyuk ajdodlarimizning ijodiy salohiyati, ular qoldirgan boy adabiy meros va uning mohiyati, ajdodlarimizning jahon madaniyatida tutgan o‘rni va qo‘sghan hissalari haqida mukammal bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Milliy ta’lim - tarbiya sohasida ularning adabiy merosiga suyanamiz. Chunki bu asarlarda inson ma’naviy shakllanishiga doir barcha o‘gitlar keltirib o‘tilgan.

Bugungi zamon har bir ota-onadan pedagog-psixolog bo‘lishni talab etmoqda. Chunki yosh avlod barkamol rivojlanishiga ta’sir qiluvchi salbiy omillar shunchalik turli-tumanki, ulardan bolalarni himoyalash har bir ota-onadan doimiy hushyorlikni talab qiladi. [2]

Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari ijodidagi insonparvarlik g‘oyalardan milliy tarbiya tizimida foydalanishning eng muhim sabablari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- Bu asarlarda insoniy xislatlarning eng mukammal ko‘rinishlari qayd etilgan.
- Yosh avlodda ma’naviy yetuk qiyofani yaratish uchun tayanch manba bo‘la oladi.
- Insonni hayot davomida uchrashi mumkin bo‘lgan ma’naviy qiyinchiliklarni yengib o‘tishida odil quroq vazifasini bajaradi.
- Yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlari ta’siriga berilishining oldini olish uchun bunday asarlarga jalb etish hamda ularda o‘z millati madaniyatiga nisbatan mehr-muhabbatni tarkib toptirishda foydalanish mumkin.
- Buyuk ajdodlarning ibratli hayot yo‘lini o‘rganish orqali yoshlar o‘z kelajak yo‘llarini aniqlashlarida saboq oladilar.

Insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Zamonaviy pedagogikaning axloqiy tarbiya berish borasidagi amaliy ishlarining asosini allomalar fikrlari tashkil etadi. Axloqiy me’yorlarni vujudga keltirishda va yuzaga kelgan axloqiy noma’qulchiliklarni bartaraf etishda olimlar ko‘rsatib o‘tgan yo‘l-yo‘riqlarga tayaniladi.

Masalan, insondagi insonparvarlik xislatlaridan biri bo‘lgan do‘st tutmoq odobi haqida Kaykovusning “Qobusnoma” asarida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Tarbiya jarayonida bolaga asardagi fikrlarni o‘rganishni taklif etish barobarida unda bu fazilat qay darajada tarkib topganligini so‘rash va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Kaykovus, inson do‘stsiz bo‘lgandan ko‘ra, birodarsiz bo‘lgani durustdir,[3] deydi. Kishining do‘sti qancha ko‘p bo‘lsa, aybi shuncha sir tutiladi va fazilati ko‘payadi. Qiyinchiliklarda hamdard, sadoqatli, ta’magir, hasadchi bo‘lmagan, aqli, ilmli, muruvvatli kishilarni do‘st tutish mumkin, deb ta’kidlaydi. Ko‘p hollarda insonlardan chinakam do‘stingiz bormi, deb savol berilganda haqiqiy do‘st mavjudligiga ishonmasliklarini aytadilar. Vafodor do‘st topish uchun insonning o‘zi ham kimgadir o‘z vafodorligini bildirishi zarur. Do‘stlik - bu odamni o‘z-o‘zi bilan do‘st bo‘la olishidan boshlanadi. O‘z “Men”ini tushungan va uni hurmat qila olgan inson atrofdagilarga ham xuddi shunday munosabatda bo‘ladi. Demak do‘stlik fazilatini o‘rganish asosida do‘st uchun qo‘yilgan talablarni avvalo bola o‘zida shakllantirishi zarurligini tushuntirib borish lozim.

Uyg‘onish davrining yana bir buyuk arbobi A.Yugnakiy eng ezgu insoniy xislatlardan biri sifatida saxovatlilikni ulug‘laydi. Saxiylikni kamolot belgisi deb tushunadi.[4] Saxiylik borasidagi Yugnakiy hikmatlarini hayotiy isbotlar asosida tushuntirilsa uning ta’sir doirasi yanada kengayadi. Masalan, bolalarda yakka hokimlikka intilish va o‘zini tengdoshlariga nisbatan ustunligini ko‘rsatishga urinish xislati ko‘p uchrab turadi. Alloma haqiqiy komil inson bo‘lish uchun faqat o‘z g‘amini yemasdan, atrofdagilarga nisbatan ochiqko‘ngil, muhtojligida yordam qo‘lini cho‘za biladigan mard bo‘lish zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikrlarni singdirish orqali jamoadan ajralib qolish xavfi tug‘ilgan bolani jamoada faollik ko‘rsatishga qaytarish mumkin. Olimning o‘gitlari bolalarda yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan soqit qilishning yo‘llarini topish imkoniyatlarini beradi. Nafaqat A.Yugnakiy, balki, barcha mutafakkirlar ijodida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish g‘oyalar mujassamlashgan. Shu munosabat bilan, yosh avlodga insonparvarlik g‘oyalarini Sharq mutafakkirlari ijodidan foydalangan holda tarkib toptirish imkoniyatlarini izlab topish kerak. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga hikmatli so‘zlarni ko‘proq yod oldirish, maktablarda buyuk allomalarga bag‘ishlangan ijodiy kechalarni doimiy tashkil qilish, adabiyot va boshqa tarbiyaviy darslarda ularning axloqiy qarashlarini o‘rganibgina qolmasdan, balki mohiyati, zaruriyatidan kelib chiqqan holda babs-munozaralar tashkil qilish mumkin. Bu munozaralarda har bir bola ishtiroki talab qilinadi, va o‘z-o‘zidan har bir bolada hikmatlarni o‘rganish ishtiyyoqi tug‘iladi. Yoshlikda olingan bilimlar, ahdga aylangan maqsadlar, singdirilgan ijobiy xislatlar insonning butun umri davomida saqlanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘zining mazmunli umr yo‘li davomida o‘ziga xos ma’naviyat mifikalarini yaratib ketgan. Alisher Navoiy bolaning kamol topishida tarbiyaning ahamiyatini yuqori baholagan. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk shaxsga aylanishiga ishongan. Allomaning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g‘oyasi markaziy o‘rinni ifodalaydi. U insonni dunyoda hammadan yuksak va qadrli hisoblagan. Navoiy, yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nima ekanligining farqiga bormaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o‘smagan bo‘ladi. Shu sababli, u o‘z xususiyatiga ko‘ra biror salbiy ta’sir natijasida yaramas, noto‘g‘ri yo‘lga tushib ketishi mumkinligini ta’kidlaydi. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor.

Bolalar o‘z ota-onalarining bergan o‘gitlarini bajarmasliklari mumkin, ammo tarbiyachi-ustozi tomonidan aytilgan vazifalarni doimiy bajaradilar. Bolalar tasavvurida bu yuksak burch kabi namoyon bo‘ladi. Shu bois, Navoiy aytganidek, “Yaxshi ta’lim va tarbiya olgan har kishi Iskandar kabi bo‘lmog‘i mumkin, buning uchun aslzoda va shahzoda bo‘lish shart emas”. [5]

XULOSA

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat, ularni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butun qilib yetkazish, an'analarimizga sodiqlik ruhini yo‘qotmaslik borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zida insonparvarlikning muhim tomonlarini qaror toptirgan, ya’ni fidoiy, mehribon, yaxshi xulqli, saxiy, vafodor shaxslargina vatan qadrini, yurt manfaatini o‘z manfaatlaridan ustunroq qo‘ya oladi. Yurt istiqboli uchun munosib hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. — Toshkent, Sharq nashriyotmatbaa konserni Bosh tahriri, 1993, 27-28-bet.
2. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi” FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b
<https://biling.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588>
3. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda loyiha metodining ahamiyati” M. Olamova, D.Murova Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022:5.908 215-221b.
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8409108218652179359&btnI=1&hl=ru>
4. Kaykovus. “Qobusnama” – T.; Istiqlol, 1994, B.26.
5. O‘rta Osiyo pedagogik fikrlar taraqqiyotidan lavhalar. – T.; 1996 y. 87-b
6. A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” (Qalblar sevgisi) – T; G‘afur G‘ulom , 1983. 28-29 b.
7. Jabborova, M. (2022). BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH TIZIMIDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.

8. Kodiraliyevna, J. M. (2022). TARBIYACHI KASBINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 64-70.
9. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
10. Тешабоев, М., Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА САЛБИЙ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 382-388.
11. Dilafruz, A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VA OILADA GENDER XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 183-189.
12. Askarova, D. I. (2022). THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 89-96.